TALABALAR SALOHIYATINI OSHIRISH MAS’ULIYATI

S.Ismoilov
Guliston davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba va uning salohiyati tushunchalarining mazmun-mohiyati va uning oshirishning ob’ekti va sub’ektiv omillari hamda vositalari ilmiy-nazariy manbalarga tayanib ochib berilgan, farazlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, salohiyat, talaba salohiyati, intelektul salohiyat, salohiyatni oshirish omillari, ob’ekti va sub’ektiv omillar, aniqlik, ob’ektivlik, mantiqiy izchillik, ixchamlik.

Bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning
ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir.
Sh.M.Mirziyoev

Salohiyat — insonning muayyan faoliyat yoki ijod uchun ichki imkoniyatlari, qobiliyati va iste’dodidir. Arab tilidan olingan bo‘lib, iqtidor va tayyorgarlikni anglatadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “saviya” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbekcha “shaxs, narsa yoki hodisaning sifat, taraqqiyot darajasi” [7:8], “salohiyat” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, uning “qobiliyat, iqtidor” ma’nolari bor ekanligi qayd etiladi [7:16].

Salohiyat [4:502] - iste’dodning bir turi bo‘lib, insonning muayyan tarzda o‘z il homini qabul qilishga tayyorlangandan so‘ng yuz beradigan sifat. Yuksak aql, iste’dod egalari **salohiyat**li kishilar deyiladi. **Salohiyat** so‘zi kishi yoki millatning ichki imkoniyatlari, to‘la namoyon bo‘lmagan kuch-quvvati ma’nosida ham ishlatiladi. Mac., milliy **salohiyat** - millat, xalq, mamlakat, jamiyat kuch-quvvati, uning mavjud ichki, botiniy, vaqti-soati kelganda namoyon bo‘ladigan iqtisodiy, ilmiy, madaniy, ma’naviy va boshqa imkoniyatlaridir. Milliy **salohiyat** ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq bo‘ladi.

“Salohiyat-u yoki bu vazifani ijobiy hal etish uchun sub’ektning foydalanadigan ichki asoslarga, kuch-quvvatga, imkoniyatga egaligini anglatuvchi falsafiy kategoriya” [5:146], deb ta’rif beradi professor Q.Nazarov.

Ob’ektiv omillar: millat yashayotgan hududning ko‘lami va hayot kechirishga qulayligi, tabiiy shart-sharoitlar, er usti va er osti boyliklarining mavjudligi, aholining soni, hayvonot va o‘simlik olamining xilma-xilligi, suv manbalarining serobligi, quyoshli kunlarning ko‘pligi va hakozo.

Sub’ektiv omillar: aholining savodxonlik darajasi, xalqning qo‘shni davlatlar bilan manfaatli munosabatlar o‘rnata olishi, mamlakat ichidagi barcha millatlar, dinlar, ijtimoiy sinflar va boshqa tabaqa vakillarining hamjihatligi. Ob’ektiv omillar mavjud bo‘lsa-da, lekin xalq tarqoq, uyushmagan bo‘lsa, mamlakat, davlat qoloqligicha qolaveradi. Aksincha, sub’ektiv omillar tabiiy sharoit noqulay bo‘lsa, natija bermaydi. Hozirgi zamon rivojlangan davlatlari va millatlari shuning uchun yuksak natijalarga erishganlarki, ularda ob’ektiv va sub’ektiv omillar uyg‘unlashgan hamda ishchanlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, topqirlik bilan ishga solingan, hayot sur’ati doim yuqori. Mac., Shimoliy qutbda joylashgan Islandiyada er ostidan chiqadigan qaynoq geyzer suvlardan foydalanish natijasida subtropik mevalar etishtirilmoqda. Yoki o‘z er osti boyliklariga ega bo‘lmagan Yaponiya eng ilg‘or sanoat, texnika-texnologiya va amaliy fanni yuzaga keltirib, jahonda eng raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Ma’lumki, talabalik davrida olamni bilishga, falsafiy mushohadaga, psixologik tahlilga, mantiqiy fikrlashga ishtiyoq va harakat kuchli bo‘ladi. Shu bilan birga, ularda fantaziyaga moyillik ham kuchli bo‘ladiki, mana shu fiziologik-psixologik holat tafakkurni rivojlantirish, bilishga intilish, ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyatini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati, avvalambor, ilmiy faoliyat xarakteriga mutanosib bo‘lgan hamda shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usul (metod) va shart-sharoitlar tizimini yaratishni taqozo etadi.

Talabalarning ijodiy tasavvurini o‘rganish va rivojlantirish, bizningcha, ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish uchun yangi ufqlarni ochadi, chunki olimning shaxsiyati aynan

talabalik davrida shakllanadi. Yoshlarda refleksiya, ya’ni o‘z bilimlari chegaralarini bilish va bu chegaralardan chiqa olish ko‘nikma va qobiliyatlari aynan talabalik davrida namoyon bo‘ladi.

Talaba - yoshlarni ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyatiga oshirish davlat va jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda muayyan hissiy-ruhiy ehtiyoj kasb etishi va buni har doim nazarda tutish lozimligi ma’lum miqdorda ilmiy asoslangan bo‘lib, bu erda fikrlarning uyg‘unligi, ilmiy izlanishlardagi ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-psixologik hamkorlik alohida ko‘zga tashlanib turadi.

Talaba - yoshlar ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyatini tashkil etishda texnologik yondashuvning o‘rni va ahamiyati katta.

Talaba salohiyatida aniqlik, ob’ektivlik, mantiqiylik, izchillik, o‘ziga xoslik, qisqalik kabi me’yorlar o‘z ifodasini topishi kerak.

Aniqlik – hodisani, predmet ma’nosini anglatuvchi so‘zlarning nominativ ma’noda qo‘llanilishi, monosemantik xarakterga ega bo‘lishi, sinonimiyaning bir qadar chegaralanishi, atamalarning ilmiy nutqqa mos qo‘llanishida ko‘rinadi. Aniq fikrsiz ilmiy bilimning bo‘lishi mumkin emas.

Ob’ektivlik - narsa va hodisalarning mavjudligi, ularning fan tushunchalari asosida izohlanishi, fikrning misollar, daliliy materiallar, teorema va formulalar bilan isbot qilinishi, bunga boshqalarning to‘liq ishonch hosil qilishida ko‘rinadi.

Mantiqiy izchillik - abstrakt otlar va atamalarning ko‘p qo‘llanishi, fikrning bir-biriga mantiqiy bog‘lanishi, izchil bayon etilishi, ilmiy nutqda izchillikni yuzaga keltiruvchi maxsus o‘ziga xos so‘z va birikmalarning mavjudligida aks etadi.

Ixchamlik - ilmiy nutqqa xos belgidir. Ilmiy bayon ortiqcha tasvir va izohni talab etmaydi. Shu sababli ilmiy bayonda narsa va hodisalar bayoni uchun uzundan-uzoq o‘xshatish, sifatlash kabi tasviriy vositalar qatnashmaydi. Shuning uchun ilmiy bayon doimo ixchamlikni talab etadi.

Talabalarning salohiyatini oshirishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

-bo‘lajak mutaxassislarning ilmiy eruditsiyasi va nazariy dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyati olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish;

-talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ilmiy munozaralar olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy-texnik masalalarni echishga undash;

-yuksak ishbilarmonlik va ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga ko‘maklashish.

O‘quv jarayonidan tashqari talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga jalb

Demak, insonning ijtimoiy mohiyati, yaratuvchilik qobiliyati asosini turli bilimlar majmui tashkil qilar ekan desak yanglishmagan bo‘lamiz [3:11].

Salohiyatli yoshlarning qanchalik bilimi ko‘p va turli-tuman bo‘lsa, uning ma’naviy dunyosi shunchalik boyib, salohiyatli shaxs sifatida har tamonlama yuksalib boradi. Buning uchun u bilim olish jarayonida faol bo‘lish kerak. “Yoshlik toshqin suv, sug‘oradigan ekiningizni sug‘orib qolmasangiz o‘tib ketadi: Keyin keksalikning ko‘zoynagini taqib igna bilan quduq qazishdan ish chiqmaydi [2:71] - deb yoshlik qadr hamasini izohlab bergan Abdulla Qahhor.

Yusuf Xos Hojib “Dunyoda bilimdan ham aziziroq yana nima bor, bilimsiz degan so‘z odam uchun nechog‘lik xunuk haqorat” [2:115], deganida salohiyatli yoshlarning ijtimoiylashuvini tushunish mumkin. Kuchli bilimlarni egallab, o‘zini takomili ustida tinmay ishlar ekan, inson pirovard natijada najot topib, buyuk ne’mat hisoblangan barkamolikka erishadi.

Inson o‘ta murakkab mavjudod bo‘lib, ham biologik, ham ijtimoiy mohiyatlarga ega. Shuning uchun ham ilmiy atamasi “bioijtimoiy mavjudot” kishi dastlab individ bo‘lib, u shaxs maqomiga ega bo‘ladi. Ma’lum bo‘lishicha, kishi shaxs bo‘lib shakllanishida, unga uch turdagi tushuncha ta’sir qiladi. 1. Tabbiy quvvatlar. 2. Aql kuchi. 3. Hamfikrlar kuchi ta’sir ko‘rsatishi.

Bu masalalar bevosita insonni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bilan bog‘liqdir. Chunki bunday tarbiya vositasida inson o‘ziga manfaat keltiradigan hayotiy maqsadni belgilab olishi, farovon hayot kechirishga asos bo‘ladigan muayyan muhitda o‘z o‘rnini egallashi va albatta ularning natijasi hayotini mazmunli yashab o‘tishi mumkin. Shu ma’noda bu kategorial tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish dolzarb bo‘lib turibdi.

1.Tabbiy quvvat tanada o‘z-o‘zidan shakllanishi tabiat bergan narsadan u o‘z ongi, maqsadini ham amalga oshiradi. Bu maqsad qonun sifatida kishining shu usulini va ishining xarakterini belgilab beradi hamda inson o‘z irodasi ana shu maqsadga bo‘ysintirilishi ijtimoiy hayotda amal qiluvchi sharoitda o‘zgarganligi natijasida yuz beradi. Bu esa ijtimoiy hayotga qanday munosabatda bo‘lish xarakteriga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

2.“Aql kuchi”ning asosini bilim tashkil etadi. Bilimni egallash uchun uzoq vaqt ter to‘kib ishlash – izlanish zarur. Aql kuchi tajribaviy bilimlardan qat’iy nazar yoshlar va talabalar asosida tartibga tushirgan holda ish ko‘radi. Aql kuchi voqea-hodisalarni to‘g‘ri tushunadigan va tushuntira oladigan, ular o‘rtasidagi bilimlarni muayyan tizimga keltira oladi hamda mulohazalaridan farqi mavjud bilimlar doirasidan tashqariga chiqishda va yangi tushunchalarni yaratishga qodir bo‘lgan ezgulik jarayonidir.

3.Hamfikr ezgulik zamirida bilimdonlik yotadi. Bilimdan aql-zakovatning ko‘rki so‘zdir, tushuncha muayan so‘zlar yordamida inson aqliga aks etadigan ashyolar tabiat hodisalarning majmuasidan kelib chiqadi. Abu Nasr Forobiy ta’kidlaydi: “Aqlli deb shundoq kishini aytadiki, zehn-idrok bo‘lishi bilan birga fazilati bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobliyati va idrokini o‘z ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratmog‘i lozim. Shunday odamnigina aqlli va to‘g‘ri fikr yo‘naltiruvchi deb atash mumkin” [1:16-17].

Intelekt insonning bilish qobiliyati, fikrlash, anglash, tafakkur qilish salohiyatini belgilaydi” [6:12], deb yozadi professor X.Shayxova.

Demak, talabalarning salohiyati deb, xaqiqatni taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatiga tayanadigan, atrofdagi voqelikka befarq bo‘lmaydigan, jismonan va ma’nan etuk shaxsga aytishimiz mumkin. Shu o‘rinda yoshlar buyuk ajdodlarimizning shon-shuhratiga, bugungi O‘zbekistonning obro‘-e’tiboriga munosib bo‘lib harakat qilib, salohiyatli yoshlarning yaratuvchilik va bunyodkorlik salohiyati, mamlakatnin kuch-qudrati, ertangi porloq istiqbolni belgilashi sir emas. Ijtimoiy hayot ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi yo‘lidagi ulug‘ maqsadlarning izchillik bilan davom ettirilishi – salohiyatli yoshlarning kuch-g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shib buyuk kelajagimizga bo‘lgan ishonch-e’tiqodini yanada mustahkamlaydi hamda o‘zi mustaqil tarzda ijtimoiy hayotda faol ishtirokchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov H. Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-ma’naviy merosi. –T.: Noshir, 2013.
2. 111 vatandosh allamalarimizning hikmatli fikirlari. –T.: Yangi asr avlodi, 2012.
3. Ziyomuhammedov B., Ismoilov F. –T.: “Vano-standart”. 2011.
4. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010..
5. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Ikki jildlik. II. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, “Ma’nhaviyat” nashriyoti, –T.: 2023.
6. Shayxova X. Intelektual salohiyat - taraqqiyot mezoni. -T.: O‘zbekiston, 2011.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli. II -tom. A-R. -Moskva: “Rus tili” nashriyoti, 1981.